Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	



Dermatovenerologiya fanini o'qitishda analitik-dagnostik pedagogik metodlar asosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi	589
Batirov Kamoliddin Zuhriddinovich	
Maktabgacha talimda bolalarda kasb tanlash kompetensiyasini shakllantirish: nazariy-tajribaviy asoslar ..	592
Hamroyeva Komila Axmatovna	
Tabiiy materiallardan foydalanishning bolalar uchun ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	598
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna	
Talabalar klinik kompetentligini dermatovenerologiya fani orqali rivojlantirishning samaradorligini baholash usullari	604
Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li	
Ijtimoiy-kompetentlikning komponentlari.....	607
Usmonova Dilobat Elmurodovna	

TABIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING BOLALAR UCHUN TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna

Navoiy davlat Universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan foydalanishning bolalar uchun ta'lim jarayonidagi ahamiyati, ularning bolalar psixologiyasiga ta'siri, ekologik ta'limdagi o'rni va o'yinlarning pedagogik jihatlarini tahlil qilinadi. Bundan tashqari, turli tabiiy materiallardan foydalanish orqali ta'limiy o'yinlarni loyihalash bosqichlari, ularning pedagogik ahamiyati va amaliy natijalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bola, tabiiy materiallar, metodika, ta'limiy o'yinlar, ekologiya, tabiat, sezgirlik, ijodkorlik, ko'nikma, tasavvur, xususiyat.

Abstract: This article analyzes the importance of the use of natural materials in preschool educational organizations in the educational process for children, their impact on children's Psychology, their role in environmental education and pedagogical aspects of games. In addition, through the use of various natural materials, the stages of designing educational games, their pedagogical significance and practical results are considered.

Key words: Preschool child, natural materials, methodology, educational games, ecology, nature, sensitivity, creativity, skills, imagination, character.

Аннотация: В данной статье анализируется значение использования природного материала в дошкольных образовательных организациях в образовательном процессе для детей, их влияние на детскую психологию, роль в экологическом воспитании, педагогические аспекты игр. Далее рассматриваются этапы конструирования развивающих игр с использованием различных природных материалов, их педагогическое значение и практические результаты.

Ключевые слова: Дошкольник, природный материал, методика, развивающие игры, экология, природа, чувствительность, творчество, умение, воображение, свойство.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda innovatsion metod va vositalardan foydalanish, pedagogik usullarni yangilash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning psixologik va fizologik rivojlanishi, ularning intellektual, emotsional va jismoniy salohiyatining to'liq namoyon bo'lishi uchun ta'lim jarayonida faol va amaliy faoliyatga asoslangan metodlar qo'llanilishi lozim. Ayniqsa, tabiiy materiallardan tayyorlangan ta'limiy o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin, ta'lim va tarbiyaning ajralmas birligi sifatida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalar uchun dunyoqarashni rivojlantirish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, ularning motor va aqliy ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat. Bu jarayonda tabiiy materiallardan foydalanishning roli katta. Tabiiy homash-yolar bolalarga yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy materiallardan tayyorlangan ta'limiy o'yinlar bolalarning atrof-muhit bilan bog'lanishini mustahkamlash, ekologik ongni shakllantirish va sezgirlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida tabiiy materiallardan foydalanishning metodik asoslari, uning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati hamda tabiiy va tashlandiq materiallardan ta'limiy o'yinlar tayyorlash jarayoni qisman yoritiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim jarayonida tabiiy materiallardan foydalanish bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash, qayta ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Friedrich Frobel, nemis pedagogi va bolalar bog'chasining asoschisi, bolalarning rivojlanishida tabiiy materiallardan foydalanishni qo'llab-quvvatlagan. Uning ta'lim tizimida bolalar tabiiy materiallar bilan o'ynash orqali o'zlarining kashfiyot va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Vasiliy Sukhomlinskiy, bolalarni tabiat bilan bevosita muloqotga jalb qilish ta'lim jarayonida muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Uning fikricha: "Bola tabiat bag'rida tarbiyalanganida, u hayotni chuqur his qilishni o'rganadi. Tabiiy materiallar bilan o'ynash bolalarda tafakkurni, tasavvurni va qiziqishni kuchaytiradi." Sukhomlinskiy o'z amaliy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilgan tajribalarda tabiiy materiallarning bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganib chiqqan.

Maria Montessori, Italiya pedagogi ta'lim metodikasida tabiiy materiallardan foydalanish markaziy o'rin tutadi. U o'z metodikasida bolalarni mustaqil ravishda atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishga undagan. "Bolalar o'z qo'llari bilan his qilgan, ushlab ko'rgan va tajriba qilgan narsalarni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Yog'och, tosh, qum va boshqa tabiiy materiallar bolaning hissiy sezgilarini rivojlantiradi va mustaqil o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi." Montessorining ta'kidlashicha, tabiiy materiallardan foydalanish bolalarning mayda motorikasini rivojlantiradi va ular uchun yanada qiziqarli o'quv muhitini yaratadi.

Jan-Jak Russo, Fransuz faylasufi va pedagogi, o'zining "Emil yoki Tarbiya to'g'risida" asarida tabiatga yaqin tarbiya usulini qo'llab-quvvatlagan. "Bola sun'iy muhitda emas, balki tabiat bilan muloqotda tarbiyalanganida, uning rivojlanishi yanada tabiiy va to'liq bo'ladi." Uning fikricha, bolalar uchun ta'lim berishda tabiiy materiallardan foydalanish ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavluda Qodirova, maktabgacha ta'lim metodikasi bo'yicha mutaxassis, o'zining "Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash" nomli maqolasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tabiiy materiallardan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday materiallar bilan ishlash bolalarning tafakkurini, tasavvurini va qiziqishini oshiradi. Shuningdek, u tabiiy materiallarni to'plash jarayonida bolalar tabiatni kuzatish orqali ekologik bilimlarni egallashlarini qayd etadi.

Dilbar Karimova, pedagogika fanlari doktori, "Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallardan foydalanish metodikasi" nomli maqolasida tabiiy materiallar yordamida bolalarning ijodkorligini rivojlantirish usullarini yoritadi. Uning ta'kidlashicha, bunday materiallardan foydalanish bolalarning mustaqil fikrlashini va atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, u tabiiy materiallarni to'plash va ulardan foydalanish jarayonida bolalar tabiatni asrash va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydi.

Men ham maktabgacha ta'lim jarayonida tabiiy materiallardan foydalanish har bir tarbiyachi uchun ham foydali ham zavqli deb o'ylayman. Chunki tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida tarbiyachi o'z ustida ishlaydi, izlanadi, shu bilan birga kreativligi oshadi. Buning natijasida esa bolada tabiatga muhabbat tuyg'usi, ijodkorlik, nutq, tasavvur hamda motor ko'nikmalari yaxshi rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limda tabiiy materiallardan foydalanish metodikasi bo'yicha tadqiqot jarayonida kuzatish, eksperiment usullardan foydalanildi. Kuzatish usuli orqali maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarni kuzatish va tabiiy materiallardan foydalanishning samaradorligi aniqlandi. Eksperiment usuli 3 bosqichda amalga oshirildi: tashabbus, amalga oshirish hamda natijalarni baholash orqali. Tadqiqot davomida tabiiy materiallardan ta'limiy o'yinlar yaratish jarayonini har tomonlama o'rganishga va bolalar rivojlanishi uchun innovatsion yondashuvlarni taklif etishga imkon berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tabiiy materiallar - bu o'zgarmagan yoki minimal qayta ishlangan tabiiy manbalardan olingan resurslar bo'lib, ular ekologik jihatdan xavfsiz va bolalarga atrof-muhitni to'g'ri tushunish, uning go'zalligini va ahamiyatini anglashda yordam beradi. Ular, odatda, o'z o'lchamlari, shakllari va tuzilmalari bilan ajralib turadi. Masalan, yog'och, tosh, qum, gil, barglar, gullar, shuningdek, paxta, jun kabi materiallar tabiiy materiallarga misol bo'la oladi. Bu materiallar ekologik jihatdan xavfsiz bo'lib, ulardan foydalanish bolalar bilan ta'lim jarayonida nafaqat o'yin, balki ularning atrof-muhitni tushunishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda tabiiy materiallardan foydalanishning afzalliklari bolalar psixologiyasining rivojlanishiga, estetik va ekologik tafakkurlarining shakllanishiga katta hissa qo'shadi.



Tabiiy materiallar bolalarga o'yin orqali o'rganishga yordam beradigan, ammo biron-bir zararli kimyoviy moddalardan foydalanilmagan ekologik jihatdan xavfsiz vositalardir. Bu materiallar ekologik jihatdan toza bo'lib, bolalarda tabiiy dunyo va uning boyliklariga bo'lgan hurmatni shakllantiradi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bolalarning sezgirlikni, ijodkorlikni, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Tabiiy materiallar bolalarga aniq sezgilarni keltirib chiqaradi, ular bu materiallar bilan bevosita aloqada bo'lish orqali tabiatni anglab, o'zlarining tajribalarini rivojlantiradilar. Masalan, yog'och bo'laklari bilan ishlash bolalar nafaqat ularning shaklini, balki materialning qattiqligi, issiqligi va teksturasini ham his qiladilar. Bu bolalarning sezgirlik darajasini oshiradi va ularni atrof-muhitga nisbatan aniq va haqiqatga yaqin tasavvurlarga ega qiladi.

Tabiiy materiallardan foydalanishning ahamiyati:

1. Bolalar bilan ekologik aloqa o'rnatish

Tabiatda mavjud resurslar bilan bevosita aloqada bo'lish, ularning qanday ishlatilishini, qayta ishlanishini va jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini bolalar tezda tushunib oladilar. Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar orqali bolalar tabiatdagi o'zgarishlar, resurslarni samarali ishlatish va ekologik muammolar haqida bilimga ega bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, ularning ekologik savodxonligini oshiradi va tabiatni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantiradi.

Masalan, o'yin davomida bolalar yog'och bo'laklaridan qurilma yasashni o'rganishlari mumkin. Bu o'yin orqali ular daraxtlarning o'sish jarayonini, yog'ochning tabiiy resurs sifatidagi ahamiyatini anglaydilar. Shu tarzda, o'yin bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantiradi.

2. Sezgirlikni rivojlantirish

Tabiiy materiallarning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, har xil shakllar, ranglar, tuzilmalar) bolalar sezgirlikni oshiradi. Bolalar turli-tuman tabiiy materiallar bilan ishlash orqali o'zlarining hissiy, ko'rish, ta'm va tovushlarni farqlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, bu materiallar bolalarda tasavvur, ijodkorlik va estetik tuyg'ularni kuchaytiradi. Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar bolalarga har xil shakl va o'lchamlarni tanib olishga yordam beradi. Masalan, toshlar yoki yog'och bo'laklar yordamida shakllarni yig'ish, ranglarni ajratish yoki bir xil shakllardan murakkab kompozitsiyalar yasash bolalarda qo'l-ko'z koordinatsiyasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, tabiiy materiallar orqali bolalar o'zlarining koordinatsiya va diqqatini ham rivojlantiradilar. Yog'och bo'laklari yordamida shakllar yig'ish, toshlar bilan konstruktiv o'yinlar o'ynash bolalarda kuzatish va diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi.

3. Bolalar motor ko'nikmalarini rivojlantirish

Tabiiy materiallar bolalarning sezgirlik va motor ko'nikmalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Har xil shakl, tuzilma va matolardan iborat tabiiy materiallar bolalarning ko'rish, eshitish va sezish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Masalan, turli shakldagi va o'lchamdagi toshlar, novdalar yoki yog'och bo'laklari bilan o'ynash bolalar qo'l mushaklarini rivojlantiradi, ularning motor ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Yog'och bo'laklari bilan konstruktiv o'yinlar o'ynash bolalar qo'l mushaklarini rivojlantiradi. Shuningdek, tabiiy materiallar yordamida tashkil etilgan konstruktiv o'yinlar bolalarda muvozanatni, diqqatni jamlashni, aniqlikni va hushyorlikni oshiradi.

4. Ijodkorlikni va tasavvurni rivojlantirish

Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar bolalarda ijodkorlik va tasavvur imkoniyatlarini kengaytiradi. Bolalar tabiatdagi elementlarni o'z o'yinlariga jalb qilish orqali yangi, o'ziga xos o'yinga asoslangan tasavvurlarni shakllantiradilar. Misol uchun, mayda toshlar yordamida o'yinlar tashkil qilish yoki gullardan kompozitsiyalar yaratish bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Tabiiy materiallar bolalar tasavvurlarini boyitadi, chunki ularning har biri o'ziga xos va alohida tuzilishga ega. Bolalar toshlar, novdalar, gullar yoki tolalar yordamida turli shakllar va strukturalar yaratish orqali ijodiy fikrlashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masalan, bolalar turli tabiiy materiallardan uylar, hayvonlar yoki boshqa ob'ektlar yasash orqali tasavvurlarini kengaytiradilar. Shu tarzda, tabiiy materiallar bolalarda ijodiy tafakkur, erkinlik va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

5. Samarali ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish

Tabiiy materiallardan tayyorlangan ta'limiy o'yinlar, o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. O'yin davomida bolalar nafaqat yangi bilimlar olishadi, balki ular o'ziga xos ko'nikmalarni ham o'rganadilar. Masalan, qo'l mehnati orqali bolalar yaratuvchanlikni rivojlantirish bilan birga, muammoni yechish, materiallar bilan ishlash va umumiy amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolalarda hissiy rivojlanishga ham yordam beradi. Ularning tabiiy tuzilmalari va rang-barangligi bolalarning estetik qarashlarini shakllantiradi. Bolalar turli xil tabiiy materiallar bilan ishlash orqali tabiatning go'zalligini va boyligini anglab, unga mehr qo'yadilar. Shu bilan birga, tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar bolalarda tinchlik, osoyishtalik va stressni kamaytirish hissinu uyg'otadi.



6. Jamoaviy ish va ijtimoiylashuv

Tabiiy materiallardan foydalanish bolalar orasida jamoaviy ishlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, bolalar birgalikda yog'och bo'laklaridan biror shakl yoki qurilma yaratish orqali o'zaro fikr almashish, bir-birining g'oyalarini hurmat qilish va hamkorlik qilishni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tabiiy materiallar yordamida tashkil etilgan o'yinlar bolalar orasida jamoaviy ishni rivojlantiradi. Birgalikda toshlardan yoki yog'och bo'laklaridan o'yinlarni qurish, bolalar orasida hamkorlik qilishni, bir-birining fikrlarini hurmat qilishni va jamoada ishlashni o'rgatadi. Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar bolalarda ijtimoiy hamkorlik, empatiya va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Ular bir-birining yordamiga muhtoj bo'lishadi va o'zaro fikr almashish orqali yechim topishga harakat qiladilar.

Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlarni tashkil etishning pedagogik asoslari:

- 1. Kreativlik va taklif qilish:** Pedagoglar tabiiy materiallardan foydalanishda bolalarga ijodiy erkinlik berishlari kerak. Har bir bolaga o'z g'oyalarini amalga oshirishga imkon yaratish, pedagogning boshqaruvini kamaytirish va bolalarga tashabbus berish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.
- 2. O'yinlarning rivojlantiruvchi xususiyatlarini hisobga olish:** Ta'limiy o'yinlarni tanlashda bolalarning yoshiga, rivojlanish darajasiga va individual xususiyatlariga mos materiallar tanlash muhim. O'yinlar bolalarning umumiy rivojlanishiga yordam beradigan, ularning tafakkurini rivojlantiradigan va kreativlikni oshiradigan bo'lishi kerak.
- 3. Ekologik ta'limni muvofiqlashtirish:** O'yinlar orqali bolalarga tabiatga hurmat, uni saqlash va asrashning ahamiyati haqida tushuncha berish lozim. Shu bilan birga, bolalar tabiiy materiallardan foydalanib, atrof-muhitni toza saqlashning ahamiyatini o'rganadilar.
- 4. Bolalarning yoshiga moslik:** Ta'limiy o'yinlarni bolalarning yoshiga va psixologik rivojlanish darajasiga mos ravishda tanlash zarur. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish kerak.
- 5. Interfaol o'yinlar:** O'yinlar bolalar uchun nafaqat o'rganish, balki qiziqarli va jozibador bo'lishi lozim. Interfaol o'yinlar bolalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.
- 6. Ekologik ta'limni qo'llash:** O'yinlar orqali bolalarga ekologik savodxonlik, atrof-muhitni asrashning ahamiyati haqida ma'lumot berish muhimdir.

"Barmoq teatri" ta'limiy o'yini

Bu o'yinda bola qo'li va barmoqlarini turli xil harakatlarga keltiradi, tasavvurlaridagi predmetlarni qo'llari bilan ko'rsatadi, mustaqil ravishda ertakni sahnalashtiradi, rasmlardan tanish ertak qahramonlarini taniydi.

Materiallar: to'qish iplari, ertak qahramonlari rasmlari, karton qog'oz, qaychi, pistalet kleydan foydalanamiz.



1-qadam. Ishni har xil rangli to'qish iplaridan barmog'imiz o'lchamidagi barmoqchalar to'qib olishdan boshlaymiz va undan so'ng karton qog'ozidan ertak qahramonlarining qiyofasi shaklini bostirib qirqib olamiz.



2-qadam. Endi ana shu barmoqchalar va karton qog'ozlariga ertak qahramonlari rasmini pistalet kley yordamida yopishtirib olamiz va kartondagi qahramonlarning pastki qismidan barmoq kiradigan holda 2 ta dumaloq shaklini kesib olamiz.




O'yin tayyor! Barmoq teatri didaktik o'yini - bolalarga ta'lim berish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan qiziqarli faoliyatdir. Ushbu o'yin orqali bolalar barmoq yordamida turli xil ertaklarni o'ynashadi. Bu, nafaqat bolalarning ijodkorligini va tasavvurini rivojlantiradi, balki ularning diqqatini, xotirasini va muloqot ko'nikmalarini ham yaxshilaydi. O'yin davomida bolalar rol o'ynashayotgan obrazlar orqali hamdardlik va empatiya hissinini o'rganadilar. Jadallashish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari ham rivojlanadi.



Yozishni va chizishni o'rganamiz

Bu tajriba asosida bolalar yozishni, rasm chizishni o'rganishadi. San'at hamda nutq va til markazida foydalanamiz.

Materiallar: ikki yoqlama skoch, ruchka, to'qish ipi, qog'oz kerak bo'ladi.



1-qadam. Ishni ruchkadan pastasini olib, o'rniga to'qish ipini joylab olishdan boshlaymiz.





2-qadam. Endi qog'ozimizga ikki yoqlama skoch yopishtirib olamiz.



Tajriba tayyor! Bolalar ruchka yordamida sonlarni, harflarni yozishi yoki hoxlagan rasmimi chizishi mumkin. Hoxlagancha xato qilsa ham bemaolol o'chirishi mumkin ya'ni ipni qaytib tortib oladi va qaytadan chizadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan foydalanish bolalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantiradi, ijodkorlik, sezgirlik, motor ko'nikmalarini rivojlantiradi, ekologik ongini oshiradi va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Shuningdek, tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, bolalarni faol va ijodiy fikrlashga undaydi. Maktabgacha ta'limda tabiiy materiallardan tayyorlangan ta'limiy o'yinlar nafaqat bolalarning intellektual va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki ularni tabiatga hurmat va mehr bilan qarashga o'rgatadi.

Shunday ekan, biz yoshlar faoliyatimiz davomida bir xillikdan cheklanib, o'z ustimizda ko'proq ishlashimiz hamda ta'lim jarayonini kengaytirishimiz, ekologik tarbiyaga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqib, ota-onalarni ularga faol jalb qilishimiz lozim. Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar-xodimlari tomonidan pedagoglar uchun maxsus qo'llanma va treninglarni tashkil qilish yo'llarini ko'rish lozimligini ta'kidlamogchiman. Zero kelajagimiz ijodkor, kreativ fikrlaydigan yoshlar va ular tarbiyalayotgan farzandlar qo'lida ekanligini unutmashimiz joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, N. Maktabgacha ta'limda innovatsion usullar va yondashuvlar / N. Abdullayeva, Toshkent: "Fan va texnologiyalar nashriyoti". – 2019. 45–112-6er.
2. Bo'ronova, G. Ekologik bilimlar asosida o'qitish metodikasi / G. Bo'ronova, Toshkent: "Sharq". – 2021. 54–82.
3. Montessori, M. O'yin orqali tarbiya / M. Montessori, Toshkent: "Tafakkur nashriyoti". – 2020. 15–58.
4. Raximova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish / M. Raximova, Toshkent: "Ma'rifat". – 2020. 21–89.
5. Sidiqova, R. Ekologik tarbiya va tabiatdan foydalanish usullari / R. Sidiqova, Toshkent: "Zamon". – 2023. 102–144.
6. Usmonov, A. Tabiatshunoslik asosida ekologik tarbiya / A. Usmonov, Toshkent: "Sharq nashriyoti". – 2021. 38–75.
7. Xodjayeva, G. O'quv o'yinlari va ijodkorlik / G. Xodjayeva, Samarqand: "Yangi asr avlodi". – 2022. 56–96.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.